

MAKTABGACHA TA'LIM TARIXI

Andijon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Azimjonova Mohichexra Bunyodbek qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim ta'rixi ya'ni kelib chiqishi, maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, bolalarni maktabgacha ta'lim bilan bosqichma-bosqich to'liq qamrab olishni ta'minlash hamda bu borasida Prezidentimizning qarorlari, maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etilishi va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiyani tarbiyachi pedagoglar amalga oshirishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Deklaratsiya, kengash, pedagog, innovatsion, axborot, axborot kommunikatsiya, ijtimoiy, muayyan tizim.

ИСТОРИЯ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Андижанский государственный педагогический институт

Воспитанница 2 ступени дошкольного образования

Азимжонова – дочь Мохичехры Бунедбека

Аннотация: В данной статье содержатся сведения об истории дошкольного образования, т.е. его зарождении, разработке и реализации единой государственной политики в области дошкольного образования, обеспечении постепенного полноценного включения детей в дошкольное образование, а также решениях Президента в этой связи, создании Министерства дошкольного образования, осуществлении обучения педагогов в организациях дошкольного образования.

Ключевые слова: Декларация, совет, педагог, инновационная, информация, информационная коммуникация, социальная, специфическая система.

HISTORY OF PRESCHOOL EDUCATION

Andijan State Pedagogical Institute

2nd year student of the preschool education department

Azimjonova Mohichekhra Bunyodbek qizi

Abstract: This article provides information on the history of preschool education, that is, its origins, the development and implementation of a unified state policy in the field of preschool education, ensuring the gradual full coverage of children with preschool

education, and the decisions of the President in this regard, the establishment of the Ministry of Preschool Education, and the implementation of education and upbringing in preschool educational organizations by educators.

Keywords: Declaration, council, educator, innovative, information, information communication, social, specific system.

O'zbekistonda maktabgacha ta'limning vujudga kelishi.

XIX asrning 80-90 yillariga kelib Markaziy Osiyoda bolalar maktabgacha ijtimoiy tarbiyasi g'oyalari yetildi. O'sha davrda taraqqiyparvar mahalliy ziyolilar mehnatkash ayollarning og'ir ahvolini va bolalar nazoratsizligini ko'rib, ularning qismatini yengillashtirishga intiladi.

Ziyoli qatlam vakillari 1872 yilda Turkistonda tuzilgan "Jamiyat xayriya" tarkibiga kirib "Jamiyat xayriya" tomonidan miskinlar uylari, tunash joylari, tug'ruq joylari bilan bir qatorda ota-onasi bo'lmagan bolalar uchun yetimxonalarni tashkil etishdi. Bu yetimxonalar oz sonli bolalarni, butun Turkistonda taxminan 150-200 kishini o'z ichiga oldi. Ushbu yetimxonalar yasli yoshdagi bolalardan tortib, maktab yoshidagi bolalarni ham qamrab olgan.

1896 yilda Turkistonda vositalar kengashi kambag'allarning bolalari uchun "yasli" lar deb ataladigan muassasalarni tuzila boshladi. Yaslilarga atak-chechak qila boshlagan bolalar qabul qilingan va maktabga ketgunga qadar tarbiyalangan boalar kun bo'yi bolalar yaslida bo'lishar va uch marta ovqatlantirilar edi. Yasli ishlarini nazoratchi ayol boshqargan, xizmat qiluvchi xodimlar ham bo'lgan. Bu muassasada bolalarni duolar o'qishga, oddiy o'qishga, yozishga, sanashga, to'qishga, to'r taqishga, tikishga va boshqa hunarlar o'rgatilgan. Butun o'lka bo'ylab shunday yaslilardagi bolalar soni 50-60 boladan oshmas edi. Turkistonda kambag'allarning bolalari uchun Toshkent, Samarqand, Sirdaryo, Namangan shaharlarida yetimxonalar tashkil etilgan.

Imtiyozli sinflarning bolalari uchun 1891 yilda "Bog'dorchilik" jamiyati tomonidan Toshkent istirohat bog'ida makatabgacha va maktab yoshidagi bolalar uchun "Bolalar maydonchasi" turidagi birinchi bolalar bog'chalari ochildi. Bolalar bog'chasi uchun istirohat bog'i maydonidan sersoya joy ajratib berildi. Maydonchada arg'imchoq o'rnatildi va xilma-xil o'yinchoqlar tayyorlandi. Maydonchada gulzor katta o'rinni egallab, bolalar o'zlari o'simliklarni paravrish qilishardi.

1891-1903 yillar davomida mablag' yo'qligi sababli bog'cha bir necha marta yopilgan. Ta'lim-tarbiyaga oid ilg'or g'oyalarning ta'siri ostida Toshkentda 1903 yil fevral oyida "Oilaviy ta'lim-tarbiyaviy to'garagi" tashkil qilindi. To'garak Harbiy ministrlk va Xalq maorifi tomonidan tasdiqlangan. Ustav asosida ish boshladi. U o'z oldiga quyidagi vazifalarni:

1. Bolalarga ta'lim-tarbiya berish usullarini rivojlantirish va takomillashtirishda yordam berish.
2. Pedagoglar bilan ota-onalarni va bolalar tarbiyasi ishini boshqaradigan kishilarni (oila, maktab va bolalar bog'chasining yagona tarbiyaviy ta'sir etishni belgilash maqsadida) bir-birlariga yaqinlashtirishni qo'yadi.

Bu to'garakda maktabgacha seksiya ham faoliyat ko'rsatgan. Ta'lim-tarbiya to'garagi yuzaga kelgunga qadar bolalar bog'chasining tarbiyaviy ishida muayyan pedagogic tizim yo'q edi, shu sababli to'garak a'zolari bolalar tarbiyasi bilan bog'liq masalalarni muhokama qilishar edi.

Bolalar birinchi marta 4 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan ikki xil yosh guruhlariga bo'linadi. Mashg'ulotlar, o'yin va ko'ngil ochishlar programmasi belgilab qo'yildi. Harakatli o'yinlar, xor bo'lib aytiladigan ashula, o'qish, rasm chizish, loy va plastilindan narsalar yasash, gimnastika mashqlarini reglamentga soladigan jadval tuzildi. Ota-onalarning talabi bilan fransuz va nemis tillari o'rgatilgan, bu ishlarni mutaxassislar tomonidan tekin amalga oshirilgan.

Ta'lim-tarbiya to'garagi bolalar bog'chasida tarbiyaviy ish saviyasini oshirishga yordam berdi. Tarbiyaviy ish mazmuniga muayyan tizim, xilma-xil ish shakllari kiritildi. Lekin maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan tarbiyachilar bo'lmaganligi sababli ko'pincha bog'cha tarbiyaviy ishining mazmuni betartib amalga oshirilar edi.

1903-1914 yillar davri maktabgacha tarbiya sohasidagi ta'lim-tarbiya g'oyalarining jadal suratda o'sishi bilan xarakterlanadi. Sirdaryo, Samarqand, Toshkent shahrida bolalar bog'chalari kabi ayrim bog'chalar yuzaga keldi. 1909-1910 yillarda va keyinchalik xususiy bog'chalar paydo bo'ldi: bu bog'chalarda 6 yoshdan boshlab bolalarni asosan gimnaziyaga o'qishga tayyorlanar edi. Bunday bolalar bog'chalari xususiy uylarda ochilar va tamomila ota-onalar ta'minotida bo'lgan. Ma'lumotga ega bo'lgan va chet tillarini biladigan o'qimishli xonimlar tarbiyachi edilar. Ammo mazkur bolalar bog'chalari faqar badavlat ota-onalarning ehtiyojini qondirgan edi. Davlat tomonidan ijtimoiy bolalar bog'chalari faqar 1917 yildan keyingina yalpi tarzda tashkil etildi. 1917 yil 20 noyabrda Xalq Komissarlari tomonidan "Maktabgacha tarbiya yuzasidan Deklaratsiya" e'lon qilinib, unda "Bolalarni ijtimoiy tekin tarbiyalash bolaning birinchi tug'ilgan kunidan boshlanadi" – deyilgan edi.

Maktabgacha tarbiya butun xalq maorifi tizimining birinchi bo'g'ini va tarkibiy qismi bo'lib qoldi. 1919 yilda qabul qilingan Davlat dasturlarida xalq maorifi sohasida ijtimoiy tarbiyani yaxshilash va xotin-qizlarni ozod qilish maqsadida maktabgacha ta'lim-tarbiya tarmoqlarini vujudga keltirish haqida fikr yuritildi. Davlatning bu umumiy siyosiy yo'li asosida Turkiston ASSR Maorifi Xalq Komissarligi oldida davlat maktabgacha ta'lim-tarbiya tarmoqlarini vujudga keltirish, metodik ko'rsatmalar ishlab chiqish, kadrlar tayyorlash va boshqa mas'uliyatli vazifalar paydo bo'ldi.

Mamlakatimiz tarixida ilk bor "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Ushbu Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 22-oktyabrda qabul qilinib, Senat tomonidan 2019-yil 14-dekabrda ma'qullangan hamda 2019-yil 16-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 595-son O'RQ bilan tasdiqlangan.

Mazkur yangi qonun 11 bob va 58 moddadan iborat bo'lib, unda Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya olish huquqiga egaligi hamda davlat har bir bolaning umumiy o'rta ta'lim tashkilotiga o'qishga kirishdan bir yil oldin davlat

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'lim turi etib belgilandi.

Ushbu qonunning 6-moddasida har bir bola maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim va tarbiya olish huquqiga egaligi hamda davlat har bir bolaning umumiy o'rta ta'lim tashkilotiga o'qishga kirishdan bir yil oldin davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta ta'limga majburiy bir yillik tayyorgarlikdan o'tishga bo'lgan huquqini kafolatlashi belgilangan. Bolaning maktabgacha ta'lim va tarbiya olishiga doir davlat kafolatlari davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari negizida maktabgacha ta'lim va tarbiya xizmatlarini ko'rsatish, shuningdek ta'lim va tarbiya berishning muqobil shakllarini tashkil etish orqali ta'minlanadi.

Davlatimizda keying uch yilda maktabgacha talim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar bugun yurtimizdagi har bir xonadonga kirib bordi, shaharu qishloqlarimizda ko'rkam maktabgacha ta'lim tashkilotlari qad rostladi. Shu ma'noda, sohaning huquqiy asoslari alohida qonun bilan mustahkamlanishi Davlatimiz rahbari tomonidan kelajak avlod ta'lim-tarbiyasiga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikning yaqqol namunasi sanaladi. Zero, O'zbekistonda dunyo tajribasida birinchi marta maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi, mamlakatimizda birinchi marta davlat-xususiy sheriklik asosida faoliyat olib boradigan bog'chalar tashkil etildi, mobil guruhlar bazasida maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatish yo'lga qo'yildi.

Maktabgacha ta'lim sohasiga oid qonun bilan mamlakatimizda yashovchi har bir bolaning maktabgacha ta'lim-tarbiya olish huquqiga ega bo'lgani, eng muhim jihat, davlat har bir bolaning umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta ta'limga majburiy bir yillik tayyorgarlikdan o'tishga bo'lgan huquqini kafolatlashi belgilab qo'yilgan katta yangilikdir. Qonunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turlari aniq ko'rsatib qo'yilgan (umumiy turdagi, ko'p tarmoqli ixtisoslashgan, inklyuziv guruhlariga ega hamda qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari) bo'lib maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ish rejimi, maktabgacha yosh davrlari, bolalarni maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlarini to'ldirish va bolalarni bir guruhdan boshqasiga o'tkazish haqidagi aniq normalar nafaqat amaliyotda ishlovchilarga, balki ixtisoslarga uchun ham har tomonlama qulaylik tug'diradi.

Umumiy turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotining umumiy rivojlantirish yo'nalishidagi guruhlarida maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturi amalga oshirilishi ta'minlanadi.

Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturi amalga oshirilishi ta'minlanadi.

Inklyuziv guruhlariga ega maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarning alohida ta'lim olish ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ularni sog'lom muhitga uyg'unlashtirish orqali ta'lim va tarbiya olishi uchun teng imkoniyatlar ta'minlanadi.

Qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalarning va rivojlanishida nuqsonlari bo'lmagan bolalarning bitta tashkilotda alohida guruhlarda, shuningdek inklyuziv

guruhlarda birgalikda o'qishni hamda tarbiyalanishini tashkil etishga qaratilgan maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturi amalga oshirilishi ta'minlanadi.

Maktabgacha ta'lim tizimiga ilg'or pedagogik, innovatsion va axborot kommunikatsiya texnologiyalari tatbiq etiladi, boshqaruv organlari va ularning faoliyatida, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moliyaviy faoliyatida ochiqlik, shaffoflik prinsiplarining ustuvorligi ta'minlanadi. Maktabgacha pedagogika fani – bu kelajak, istiqol uchun meros qilib qoldiriladigan boylikdir. Bu boylikning qadr-qimmati shu qadar buyukki, u odamni ma'naviy jihatdan boy qilib, qalbini baxtga, ilohiy nurga to'ldiradi. Dunyoda biror kimsa yo'qki, uning ustози bo'lmasa. U xukumat rahbarimi, buyuk allomami, shifokormi, xalq mexrini qozongan yozuvchimi yoki qo'li gul kosibmi, qo'yingki, barcha-barchaning o'z ustози va hayot yo'lini charog'on etib turuvchi yo'l boshchisi bo'ladi.

Tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim va fahrli shu bilan birga mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq va jamiyat oldidagi o'z ma'suliyatini anglashga ta'lim-tarbiya ishlarini hal etishga ijodiy yondoshishga o'z mahoratini doimo faollashtirib borish va hamkasblarning ishdagi o'sishiga ko'maklashuviga yordam beradi. Tarbiyachi o'zi yashab turgan o'lka hayotini bilishi tabiat va jamiyat omillarini tushunishi ijtimoiy faol bo'lishi kerak.

Mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida o'qituvchining kasbiy faoliyatiga shunday ta'rif beriladi: "Barchamizga ayonki, inson qalbiga yo'l, avvalo ta'lim tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachonki bu haqda gap ketsa, ajdodlarimiz qoldirgan bebeho merosni eslash bilan birga, ota-onalarimiz qatori biz uchun eng yaqin bo'lgan yana bir buyuk zot – o'qituvchi va murabbiylarning oliyanob mehnatini hurmat bilan tilga olamiz.... Muxtasar qilib aytganda, maktab degan ulug' dargohning inson va jamiyat taraqqiyotidagi hissasi va ta'sirini, nafaqat yoshlarimiz, balki butun xalqimiz kelajagini hal qiladigan o'qituvchi va murabbiylar mehnatini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi" degan edi.

Mamlakatimiz kelajagi, mustaqil O'zbekistonning istiqboli, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohatlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan tarbiyasi sohasida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan tarbiyachi o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligiga, fidoyiligiga, yosh avlodga ta'lim berish va barkamol inson darajasida tarbiyalab, voyaga yetkazishga nisbatan shijoatiga bog'liq.

Ma'lumki ta'lim muassasalarida tarbiyaviy jarayon bevosita o'qituvchi tomonidan tashkil qilinadi va olib boriladi. Yangicha ijtimoiy sharoitda ta'lim tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, o'quvchilarning dars va darsdan tashqari xilma-xil tarbiyaviy faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, vatanparvar, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish va kasbga yo'naltirish o'qituvchilar zimmasiga yuklatilgan.

Tarbiya – o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyat bo'lib, tarbiyalanuvchini ma'lum bir maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun shaxsga muntazam va tizimli ta'sir etish, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy tajribalariga yondashib shaxsni har tomonlama

shakllantirish, uning xulq-atvori va dunyo qarashini, ijtimoiy ongini tarkib toptirishda xalqning boy mafkuralariga yo'naltirilgan qizg'in faoliyat jarayonidir. Tarbiya asosida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, ma'naviy boyligi va his-tuyg'ulari rivojlanadi, o'zida ijtimoiy hayotda o'z o'rnini toppish uchun zarur bo'lgan, kishilar bilan o'zaro munosabatni to'g'ri tashkil etishga xizmat qiladigan axloqiy odatlar hosil bo'ladi tarbiya xususida taniqli o'zbek adibi Abdulla Avloniyning "Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo falokat, yo saodat – yo razolat masalasidir" – deb aytgan fikirlari barcha millat vakillarining tarbiyasiga mos keluvchi haiqatdir. Ushbu fikirdan anglaniladiki, shaxs tarbiyasi xususiy ish emas, balki ijtimoiy milliy va davlat ishidir.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'qituvchidagi tarbiyachilik qobilyatining asosiy mohiyatini shunday ta'riflaydi: "Tarbiyachi – ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql – idrokini o'stirish, ma'rofat ziyosidan bahramand tarbiyachining o'zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak". Demak, o'z faoliyatini endigina boshlayotgan o'qituvchilar va doimiy izlanishda bo'lgan tajribali o'qituvchilar ham tarbiyachilik mahoratiga zamin yaratuvchi quyidagi jarayonlarni bilishi kerak:

- Har qanday pedagogic vaziyatlarda o'quvchining ichki va tashqi dunyosini to'g'ri tushunish malakasi;

- pedagogik vaziyatlarni to'g'ri idrok qilish uchun diqqatni jamlash;
- tarbiyalanuvchilarga ishonch va talabchanlik;
- tarbiyaviy vaziyatni har tomonlama puxta baholay olish qobilyati;
- xilma-xil pedagogik taktlardan o'zi uchun eng muhimini ajrata olish

qobilyati;

- ziddiyatli tasodifiy holatlarda ikkilanmasdan to'g'ri qaror qabul qilish;
- tarbiyada ta'sir etishning turli usullaridan foydalana olish qobilyati;
- fikr va mulohazalarini so'z bilan, mimika va pantomimik harakatlar bilan

o'quvchi ongiga aniq yetkaza olish;

- dars va darsdan tashqari faoliyatda o'quvchilar bilan kommunikativ aloqa o'rnata olish qobiliyati;

- o'quvchilar ongida erkinlik va tashabbuskorlikni, o'z fikr mulohazalarini qo'rqmasdan bayon qilish ko'nikmalarini tarbiyalash;

- qiyin holatlarda o'quvchilarga yordam bera olish;
- tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishda o'quvchilar jamoasi bilan doimo maslahatlashish;

- o'tkazilayotgan tarbiyaviy tadbirlar yuzasidan o'quvchilarning fikrlarini o'rganish;

- o'z-o'zini boshqarishning turli shakllaridan unumli foydalanish;
- har bir o'quvchining yashirin ilobiy fazilatlarini ko'ra olish va takomillashtirish;

- o'quvchilarning ijtimoiy kelib chiqishiga qarab toifalarga ajratmaslik, bir xil munosabatda bo'lish.

1

¹ Avloniy Abdulla. "Turkiy guliston yoxud axloq". – Toshkent, O'qituvchi, 1992y

Pedagog - tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda, o'yinlarda, mashg'ulotlarda, birgalikdagi mehnat faoliyatida va ular bilan bo'ladigan muomalada ta'sir ko'rsatadi. U har bir bolani diqqat bilan o'rganishi, uning shxasiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini bilishi, pedagogik nazokatini namoyon qilishi, bolalarning xulq- atvorini, ish natijalarini haqqoniy baholashi kerak, ularga o'z vaqtida yordam ko'rsata olishi, oiladagi ahvoli bilan qiziqishi zarur. Hozirgi zamon tarbiyachisining asosiy fazilatlaridan biri o'z kasbiga sadoqatliligi, g'oyaviy e'tiqodliligi o'z kasbini sevishi va bu kasbga bo'lgan cheksiz sadoqati o'qituvchi – tarbiyachi boshqa kasb egalaridan ajratib turadi. Pedagog-tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablaridan biri shuki, u o'z predmetini, uning metodikasini chuqur o'zashtirgan bo'lishi zarur. Bu pedagog tarbiyachining obro'sini ko'taradi. Tarbiyachi kasbiga xos bo'lgan muhim fazilatlaridan biribolalarni sevish ularning hayoti bilan qiziqish har bir shaxsni xurmat qilishdan iborat. Bolani sevgan butun kuch va bilimini bolalarni kelajagi buyuk vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar qila oladigan odamgina haqiqiy tarbiyachi-pedagog bo'la oladi. Bolalarni sevish pedagogning murakkab mehnatini jozibali va yengil qiladi. Tarbiyachining bolalarga munosabati pedagogikada tarbiyalanuvchi shaxsga hurmat, unga talabchanlik bilan bir qatorda turadi. Bu munosabat bolada pedagogga nisbatan ishonchni uyg'otadi, o'qituvchiga bolalarni chinakam ma'naviy murabbiysi bo'lishga imkon beradi.

Pedagog faoliyatining muvaffaqiyati pedagogic qobiliyatlarining mavjudligiga ham bog'liqdir. Pedagogik qobiliyat – pedagogic mahoratga erishishning zaminidir. Pedagogik qobiliyat tarkibiga: pedagogic kuzatuvchanlik, pedagogic tasavvur, diqqatni taqsimlash, tashkilotchilik qobiliyati va pedagogic muomala kiradi. Pedagogik qobiliyatlar pedagogic faoliyati jarayonida, shuningdek uni bu faoliyatga tayyorlash jarayonida, shuningdek uni bu faoliyatga tayyorlash jarayonida shakllanadi. Pedagogic mahorat – bu yosh avlodga ta'lim tarbiya berishni yuksak darajada va doimiy ravishda takomillashtirib boorish san'atidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shoista Sodiqova MAKTABGACHA PEDAGOGIKA 2023
2. Karimov I.A Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.; “Ma'naviyat”, 2008
3. O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi. – T; “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2011.
4. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 dekabrda “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi O'RQ 595-sonli Qonuni.